

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SHUKUROVA NILUFAR XALIYAROVNA

**YOSHLARNING “OMMAVIY MADANIYAT”GA QARSHI
KURASHISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI**

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (Etika)

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fal664 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich**
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Aymatov Aminjon Qudratovich**
falsafa fanlari doktori, (DSc), dotsent

Allayorova Marhabo Mavlonovna
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 18-oktabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№88-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 4-oktabr kuni tarqatildi.
(2024-yil 4-oktabrdagi 88-raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yoshlarning axloqiy ongini o'zgartirishga intilayotgan xilma-xil g'oyalar "ommaviy madaniyat"ning ko'z ilg'amas niqobida milliy qadriyatlar, an'analarni izdan chiqarishni ko'zlayotgan bir paytda ijtimoiy jarayonlar voqelikni ratsional yo'l bilan hal etishni dolzarb muammoga aylantirmoqda. Insonning borliqdagi induktiv bilimlarini qabihlik va buzuqlikka chorlash, jamiyatdagi oliy insoniylik tuyg'ularini zo'ravonlik va jaholatparastlikka almashtirish, yoshlardagi bokiralik hislarini izdan chiqarib, dunyoviylik qiyofasidagi soxta axloqni eksport qilishga urinishlarning ildizlarini aniqlash ijtimoiy makonda voqelikka aylanib bormoqda. Bunday tahlikali vaziyatlarni o'zaro hamkorlikda hal qilish, noziklashib borayotgan "ommaviy madaniyat"ning xalqlar madaniyatini obro'sizlantirishga qaratilgan harakatlarini kamaytirish, insoniy borliqdagi real haqiqatlarni axloq normalarini buzib targ'ib etayotgan kuchlarga nisbatan davlatlarning birgalikda yechim topish yo'llarini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Dunyoda "ommaviy madaniyat" tahdidlari kuchayib borishi bevosta uning evolyutsiyasini, rivojlanish tendensiyalarini, etnografik omillarini tadqiqot obyekti sifatida o'rganishni talab etmoqda. G'arbdagi "ommaviy madaniyat" refleksiyasi o'z ekspansiyasi tufayli Sharqning azaliy an'analarini yangilashga, mavjud milliy marosimlarga katarsis hodisasi orqali yondashishga, yoshlar axloqiy ongini forig'lanishga chorlashi kuchayib bormoqda. Odamlarning voqelikka zavqiy munosabatlarini batamom yangilanishga intilish, dunyoning axloqsizlikka botgan razil immoralizmini maqtash, jamiyatda ahmoqlik va vahshiylikni hissiyotlarga tayanib sig'inishga aylantirish, turlicha sarkazm g'oyalarini qudratli qurol sifatida odamlarning taqdiriga bog'lab, voqelikni milliylikdan batamom barbod qilishga urinadigan dunyoqarashga qarshi yoshlarning axloqiy madaniyatga munosabatini falsafiy o'rganishni muhim jarayonga aylantirmoqda. "Ommaviy madaniyat"ning illatlarini jamiyatlarda yoshlar ongiga singdirishni maqsad qilayotgan buzg'unchi kuchlarga qarshi davlatlarning birlashishi, insoniyatning ertangi taqdirini axloqiy buzuq g'oyalarga almashtirmaslik muhimligi barcha fuqarolarni ogohlikka chorlagan holda mazkur jarayondagi muammolarni ilmiy tadqiq etishni dolzarb axloqiy masalaga aylantirmoqda.

Mamlakatimiz yoshlarining axloqiy madaniyatini yuksaltirishda turli salbiy g'oyalarning regulyatorlik rolini kamaytirish, milliylikka hamnafas qadriyatlarni ko'paytirish yanada dolzarblashib bormoqda. Davlatimiz tomonidan "ommaviy madaniyat" tahdidlarining jiddiyligi hisobga olingan holda, uning turlicha to'fon va bo'ronlari illatlaridan yoshlarni saqlash, uning targ'ibotchilariga nisbatan mafkuraviy kurashish falsafiy tadqiqotlar sohasini kuchaytirishni talab etmoqda. "Yoshlarni turli zararli diniy oqimlardan, "ommaviy madaniyat" niqobi ostida kirib kelayotgan buzg'unchi va yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, to'g'ri yo'ldan adashgan fuqarolarni sog'lom turmush tarziga qaytarish maqsadida olib borilayotgan ishlar biz kutgan natijani bermayapti"¹. Bunday falsafiy dunyoqarashga ehtiyojni har

¹Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Тошкент: 4-жилд, Ўзбекистон, 2020. –Б. 140.

bir mahallada uzluksiz ravishda mutassadilar tomonidan amaliy tarzda o'rganish, milliy mentalitetga uyg'un holda yoshlar axloqiy immunitetini mustahkamlash, ma'naviy dunyosida "ommaviy madaniyat"ga moyilligi kuchli bo'lgan yoshlar bilan individual ishlash dolzarblashib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 28-yanvardagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" 2021-yil 20-iyuldagi O'RQ-668-son "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida" qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" va 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamma sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishida innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'naliga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jamiyatdagi barqaror e'tiqodlarning ildiziga qurt tushirishga urinish, voqelikda mavjud axloqiy qadriyatlarni xunrezlikka boshlash, aqlni hissiyotga qul qilish, yorug'lik kuchlarini zulmatga manipulyatsiya qilishning mexanizmlariga qarshi tadqiqotlar olib borishda faylasuflar turlicha tahlillarni amalga oshirganlar.

Yoshlar axloqiy dunyoqarashida ziddiyatlarning shakllanishi, noodatiy axloqning voqelikda jamiyatni o'zgartirishga intilishini bir qator xorij olimlaridan G.Gadamer, G.Maklyuen, L.Miller, P.Sorokin, A.Smit, A.Toynbi, O.Shpengler, K.Yaspers¹ va boshqa bir qator faylasuflar tadqiq etganlar. Mazkur faylasuflarning qarashlarida "ommaviy madaniyat"ga doir ilmiy mulohazalar, ba'zi bir ta'riflar obyektiv voqelikka o'zaro aloqadorlikda ifodalanishi aks etgan.

"Ommaviy madaniyat"ning yoshlar sog'lom turmushiga singinishidagi madaniy faoliyat bilan bog'liq holatlar MDH davlatlarining olimlari tomonidan ham o'rganilgan. Jumladan, rossiyalik olimlar A.A.Aloyan², A.V.Avramov, N.A.Berdyayev³, V.M.Bexterov⁴, A.G.Bukin, O.Y.Birichevskaya, P.A.Goncharov, L.G.Ionin⁵, M.OShavaeva¹ tadqiqotlarida "ommaviy madaniyat"ning yoshlar

¹Гадамер Г.Г. Актуальность прекрасного. –Москва: Искусство, 1992. – С. 468; Тойбни А.Дж. Постигание истории. –Москва: Прогресс. 1991. –688; Шпенглер О. Закат Европы. –Москва: Прогресс. 1993. – С. 324.

²Алоян А.А. Предупреждение распределения субкультуры наркомания в молодежной среде. Автореферат дисс. на соис. уч. степ. канд. юрид. наук. –Москва: 2002. –С. 26.

³Бердяев Н.А. Судьба России. –Москва: Харьков. 2000. –С. 597.

⁴Бехтеров В.М. Гипноз, внушение, телепатия. –Москва: 1994. –С. 172.

⁵Ионин Л.Г. Социология культуры. –Москва: Логос, 1998. –С. 47.

ruhiyatida nomoddiy axloqqa qarshi kurashish, axloqdagi betartiblikni jilovlash masalalari tadqiq qilingan. Qozog‘istonda S.B.Bulekbayev o‘z tadqiqotida turklarning sivilizatsion madaniyatga hissa qo‘shganligini, J.M.Dosxojina madaniyatlar kommunikatsiyasining globallashuvdagi substansional asoslarini, Z.K.Buenbayeva Sharq va G‘arbdagi integratsiyaning submadaniyatlarga aloqalarini, O.V.Nikolayeva² esa madaniyatning qadriyatli e‘tiqodlarga asoslanish dunyoqarashini falsafiy tadqiq etgan.

Yangi O‘zbekistonda yoshlarni “ommaviy madaniyat” tahdidlaridan himoyalash, ularning salbiy illatlarini oldini olish borasida doimiy jamaotchilik nazorati shakllangan. Bunda milliy andozalar tarixdagi sivilizatsiyalar to‘qnashuvida o‘zini oqlagan, yoshlar axloqida yaxlit ustuvorlikka erishgan madaniyatlardan olingan. Jumladan, O.Nishonova, M.Nurmatova, Sh.Odilxonova, A.Ochildiyev, B.Umarov, N.Umarova, M.Qahhorova, Sh.G‘oyibnazarov³lar “ommaviy madaniyat”ning ratsional mag‘zini ayni makondagi integratsiya bilan bog‘lashgan. Ularning tadqiqotlarida ko‘proq geosiyosatning madaniyatlar transformatsiyasiga qo‘shilishi natijasida xavf-xatarlar shakllanganligi, milliylikka tahdidlar ko‘proq o‘rin egallagan.

Yangi O‘zbekistonda yoshlarni turli yot axborot va mafkuralardan asrash, internet olami orqali kirib kelayotgan “ommaviy madaniyat” unsurlarining yoshlar estetik ongiga tahdidlarini oldini olish ilmiy tadqiqotlarda o‘z aksini topmoqda. Bunday tahdidlarning oldini olishda milliylik va axloqiy qadriyatlarning rolini ochib berishda S.S.Abdikarimova, Z.A.Karimov, R.R.Komilov, F.R.Madraximova, B.M.Raxmonov, A.I.Tulyayev, J.Y.Yaxshilikov, N.E.Nurmatov, O.M.G‘aybullayev⁴ kabi olimlarning tadqiqotlari nazariy-metodologik asos vazifasini bajaradi.

¹Шаваева М.О. Этнокультура как многофункциональная система взаимодействия. дисс. ... канд. филос. наук: Ростов на Дону, 2004. – С. 159.

²Буллекбаев С.Б. Тюркский вклад в мировую культуру и цивилизацию. Монография. –Алматы: VAVISSystems, 2016. – С. 316; Досхожина Ж.М. Культурологический анализ межкультурной коммуникации в условиях глобализации. Дисс. ...док. филос. (PhD): -Алматы: 2015. – С.125; Буенбаева З.К. Традиции, контент и конвергенция в медиапроцессе Востока и Запада (сравнительный анализ). Дисс. ... док. филос. (PhD): -Алматы: 2019. – С.170; Николаева О.В. Ценности и стили жизни в молодежной среде. дисс. ... док. филос. (PhD): -Астана: 2016. – С.156.

³Нишонова О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти ва функциялари. Фал.фан. док. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. –Тошкент: ЎзМУ, 2016. –Б. 202; Нурматова М. Шах маънавий камолотида эстетик ва ахлоқий қадриятлар уйғунлиги. Фал. фан.док. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. –Тошкент: 2011. –Б. 370; Одилхонова Ш. “Оммавий маданият” таҳдиди. –Тошкент: Мухаррир, 2010. –Б.20; Очилдиев А., Умаров Б. глобаллашув зиддиятлари. –Тошкент: 2006. –Б. 124; Умарова Н. Глобаллашув шароитида ахборот хуружларига қарши кураш. –Тошкент: Академия, 2010. –Б. 103; Қахҳорова М. Жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит: муаммо ва ечимлар. Фал.фан.док. дисс. автореф. –Тошкент: ЎзМУ, 2012. –Б.56; Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. –Тошкент: O‘zbekiston, 2012. –Б. 240.

⁴Абдикаримова С.С. Замонавий ўзбек оиласи этноанъаналарида трансформация жараёнлари. Фалс. доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Самарқанд: 2019. –Б.142; Каримов З.А. Соғлом турмуш тарзининг миллий репродуктив тараққиётга таъсири. Фалс. доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Самарқанд: 2021. –Б. 145; Комилов Р.Р. Ўзбек халқи никоҳ маросимларининг ахлоқий ва эстетик моҳияти. Монография, –Тошкент: Fan ziyosi, 2021. –Б. 228; Мадрахимова Ф.Р. Глобаллашув жараёнида “Оммавий маданият” таҳдидларининг олдини олиш масалалари. Фалс. доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент: 2017. –Б. 152; Рахмонов Б.М. Янги Ўзбекистон миллий ғояси ривожига этномаданий қадриятлар омили. Фалс. доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. –Тошкент: 2022. –Б. 54; –Тошкент: 2022. Туляев А.И. Виртуал оламнинг ахлоқий муаммолари. Фалс. доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган

Mazkur tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, “ommaviy madaniyat” qotib qolgan va bir tizimga solinadigan jarayon bo‘lmasdan, u kezi kelganda yoshuqarining ongini buzishi, o‘zining jozibadorligi bilan har qanday fuqaroni o‘ziga jalb etishi mumkin. Uning g‘oyalari xalqimizga xos axloqiy qadriyatlar va mentalitetni izdan chiqarish, yoshlarni o‘z nayranglariga o‘ynatishni nazarda tutadi. Tadqiqotimizdagi muammolarning ko‘plab jihatlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, yangi O‘zbekiston sharoitidagi mazkur dolzarb masalalar mustaqil tadqiqot obyekti sifatida falsafiy-axloqiy jihatdan tadqiq etilmagan. Shuning uchun tadqiqot ishida muammoning axloqiy jihatlari tahlili ochib berilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an’analar va ularning zamonaviy ko‘rinishlarini targ‘ib etuvchi platforma yaratish” (2020-2022) mavzusidagi PZ-2020022811 raqamli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “ommaviy madaniyat” sifatida rivojlanayotgan estetik niqobdagi negativ holatlarning yechimiga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jamiyatda “ommaviy madaniyat”ning noxiziqli tafakkurga egaligi, ta’limga ta’sirini ratsional yo‘llari o‘rganish;

“ommaviy madaniyat”ni yoshlar dunyosida muqaddaslashtirishga intilishlarning etnoestetik qiyofasini asoslab berish;

faol aqlning abadiyatga daxldorlik hissiyoti bilan axloqsiz madaniyatlarning sababiyatini o‘rganish;

moddiy borliqdagi jismlarni “ommaviy madaniyat”ga aylantirishga xayrixoh kuchlarning asl maqsadlarini aniqlashtirish;

“ommaviy madaniyat” transmadaniy hodisasi aloqalarining funksional xususiyatlarini eklektik jihatdan tahlil etish;

formal mantiqdan quvvatlanmaydigan “ommaviy madaniyat”chilarning axborot xurujlarini keltirib chiqarish sabablarini irratsional tomonlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashishda axloqiy qadriyatlarning mohiyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini yoshlarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashishning nazariy-metodologik mexanizmlarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz, sintez, tarixiylik, mantiqiylik, qiyoslash, umumlashtirish, kuzatuv, so‘rovnoma kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“ommaviy madaniyat” niqobidagi ko‘ngilochar tomoshalarning zararli sabab va oqibatlari aniqlanib, ularning yoshlar etosferasiga kirib kelishini oldini olishga

диссертация. –Ташкент: 2021. –Б. 153; Яхшилик J.Я., Мухаммадиев N. E. Falsafa. –Samarqand, SamDU nashri, 2021. –Б. 712; G‘aybullayev O.M. Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi. –Toshkent: 2019. –Б. 576.

qaratilgan etnomadaniy qadriyatlar asosida sublimatsiyasini oshirishning akmeologik, aksilologik mexanizmlari mantiqan dalillangan;

“ommaviy madaniyat” sifatida yoshlar ongiga singib borayotgan vandalizm, kosmopolitizm, egoizm singari zararli xususiyatlarga nisbatan eudamonizm, vatanparvarlik, altruizm antogonizmida axloqning pozitiv atributiv kategoriyalari barqarorligini oshirishning zaruriy determinantlari ochib berilgan;

“ommaviy madaniyat” keng tarqalishi natijasida butun bir millatning milliy madaniyatiga salbiy tarzda singayotgan axloqsiz submadaniyatlar (beatnik, moda, hippi) traektoriyasini yoshlar dunyoqarashiga ta’siri axloqiy identlik asosida falsafiy kontekstda ochib berilgan;

“ommaviy madaniyat” niqobida shakllanayotgan turli g’ayriijtimoiy harakatlar va natsist guruhlar (pranklar, rokerlar, geylar)ning zo’ravonlikni, sadizm, axoqiy mazoxizm kabi pornografik sahnalarni targ’ib qiluvchi milliy qadriyatlar transformatsiyasiga sabab bo’lib, oqibatida ijtimoiy aratiyaning oshib borayotgani falsafiy rakusda aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

voqelikda yoshlarning “ommaviy madaniyat”ga qarshi axloqiy immunitetini mustahkamlash, voqelikdagi turli tasodifiy jarayonlar zanjirini axloqsizlikka ta’sirining kategorial apparati ratsional yondashuv asosida aniqlashtirilgan;

“ommaviy madaniyat” rakursidagi qarashlarning fatalizm bilan uyg’unlashuvi, yoshlarning gedonizmni taqdirning ehsoni sifatida qabul qilishi, voqelikda axloqqa doir ijobiy tendensiyalardan transformatsiya jarayonida axloqiy qadriyatlarning substansional bog’lanishlarini falsafiy tarzda ratsional hal etish yo’llari yuzasidan amaliy xarakterdagi tavsiyalar ishlab chiqilgan;

yoshlar axloqiy ongida yangi O‘zbekiston islohotlariga mos falsafiy dunyoqarashni shakllantirish asnosida, jamiyatdagi salbiy holatlarni bartaraf etishga imkoniyat yaratadigan korrelyatsion aloqalarni izlab topish, turli salbiy tendensiyaga ega “ommaviy madaniyat” qadriyatlardan yosh avlodni asrash borasida bugungi insoniyat oldida paydo bo’layotgan bo’shliqlarni to’ldirish bo’yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish taklifi berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya to’plamlari, OAK ro’yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ijtimoiy muhitdagi voqelikni ifodalagan xulosa, amaliyot natijasida taklif va xulosalarga erishilganligi, tadqiqot natijalari bo’yicha vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ahamiyati natijalar shundan dalolat beradiki, ishda “ommaviy madaniyat” tushunchasining yakkalikdan umumiylik tomon siljishi, ob’ektiv olamdagi dialektik qonuniyatlarning madaniyatlararo to’qnashuvdagi ilgarilama harakati, fazoda qadriyatlar almashishining simmetriyasi, ko’zga ko’rinmas yashirin axloqqa zid noaxloqiy qonunlarning dialektikasi, murakkab immanent xususiyatlarning axloqqa ta’sir dinamikasini nazariy-falsafiy jihatdan o’rganilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati narsa va hodisalarning turli ziddiyatlarga aksiologik tarzda javob berib, yoshlarning “ommaviy madaniyat” borlig’iga inkorni inkor qonuni bilan ratsional kirib borishi, ijtimoiy kashfiyotga aylanayotgan axloqsizlik illatlariga jamoatchilikning qarshiligini kuchaytirish,

ta'lim jarayonidagi o'quv dasturi va rejalarining omtimallashtirilgan intellektual salohiyatga oshirishga doir bandlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijasida yoshlarning ommaviy tahdidlarga qarshi kurashishi jarayonida axloqiy qadriyatlarga tayanishini tadqiq etish asosida:

“ommaviy madaniyat” niqobidagi ko'ngilochar tomoshalarning zararli sabab va oqibatlari aniqlanib, ularning yoshlar etosferasiga kirib kelishini oldini olishga qaratilgan etnomadaniy qadriyatlar asosida sublimatsiyasini oshirishning akmeologik, aksilologik mexanizmlari mantiqan dalillanganligiga doir taklif-tavsiyalardan O'zMUda 2020-2022-yillarda bajarilgan “O'zbek xalqi diiny va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transditsiplinar platformasini yaratish” mavzusidagi A-OT-2021-11 raqamli amaliy loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 20-apreldagi 04/11-2315-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar fikriga zid “ommaviy madaniyat” unsurlarining ustidan milliy qadriyatlar ustuvorligiga, be'mani irratsional qarashlarning jamiyatga kirib kelishini oldini olishga xizmat qilgan;

“ommaviy madaniyat” sifatida yoshlar ongiga singib borayotgan vandalizm, kosmopolitizm egoizm singari zararli xususiyatlarga nisbatan eudamonizm, vatanparvarlik, altruizm antogonizmida axloqning pozitiv atributiv kategoriyalari barqarorligini oshirishning zaruriy determinantlari ochib berilganligiga doir taklif-tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining “Sog'lom inson – sog'lom millat” mavzusidagi amaliy loyiha ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining 2023-yil 26-apreldagi 04/9-10-18-son ma'lumotnomasi). Natijada, “ommaviy madaniyat”ning yoshlar borlig'idagi bo'shliqni egallashga bo'lgan sa'y-harakati, tabiiylikning soxtakor madaniyatdan ustun turishini insonlarga isbotlab berishga xizmat qilgan;

“ommaviy madaniyat” keng tarqalishi natijasida butun bir millatning milliy madaniyatiga salbiy tarzda singib borayotgan submadaniyatlarni (beatnik, moda, hippi) amoralistik dunyoqarash asosida axloqiy identlikning tuzilishi falsafiy kontekstda ochib berilganligiga doir taklif-tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Samarqand viloyat Madaniyat boshqarmasining 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror madaniyat rivojlanishidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 5-maydagi 20/20-558-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar orasida keyingi paytlarda keng avj olayotgan turli salbiy dunyoqarashlarning oldini olishga va yoshlarning estetik immunitetini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

“ommaviy madaniyat” niqobida shakllanayotgan turli g'ayriijtimoiy harakatlar va natsist guruhlar (pranklar, rokerlar, geylar)ning zo'ravonlikni, sadizm, axoqiy mazoxizm kabi pornografik sahnalarni targ'ib qilushi milliy qadriyatlar transformatsiyasiga sabab bo'lib, oqibatida ijtimoiy aratiyaning oshib

borayotgani falsafiy rakursda aniqlanganligiga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yilda efirga uzatilgan “Kelajak bunyodkorlari” teleko‘rsatuv dastur ssenariysini tuzishda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 28-apreldagi 01-07/146-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarda axloqiy buzuv o‘yinlardan uzoqlashish tuyg‘usini kamol toptirib, baxtli yashashga intilish, turli bayramlarning estetik qiymatlarini anglab yetishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruzalar ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (2 ta xorijiy va 5 ta respublika jurnallarida) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, 8 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, dissertatsiya bajarilayotgan muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti va usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Tadqiqotning birinchi bobi “**Yoshlarning “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashishini o‘rganishdagi ilmiy metodologik asoslar**” deb nomlanadi. Mazkur bobda, yoshlarni ommaviy madaniyat tahdidlaridan asrash, jamiyatning bu boradagi qonuniyatlarini anglab yetish, har bir xalqning o‘z kelajagiga befarqligining oldini olishda jamoatchilikning ham e’tiborini kuchaytirish muhimligi yoritilgan. Bobning birinchi paragrafi “**“Ommaviy madaniyat” va yoshlarning unga qarshi kurashishini metodologik asoslari**” deb nomlanib, unda “ommaviy madaniyat” tushunchasining falsafiy tadqiqot ob’ekti sifatida paydo bo‘lish tarixi, qadimgi Rim, Babil, Yunoniston davlatlaridagi ko‘ngilochar tomoshalar, san’at asarlaridagi qiyofalar, insonni qullikdan ozod qilish ruhiyatidagi gladiatorlar janglarida paydo bo‘lganligi o‘rganilgan. XX asr tadqiqotchilari fikricha, asosan “ommaviy madaniyat” so‘nggi yuz yillikning tahdidi sifatida madaniyatlarning to‘qnashuviga sabab bo‘lganligi bilan xarakterlanadi.

Bizningcha, “ommaviy madaniyat” – bu inson ijtimoiy turmush tarzida turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan, ma’naviy va moddiy madaniyat bilan o‘zaro yaqinlashib, har bir xalqning o‘ziga xos qadriyatlarini, necha yuz yillar davomida shakllangan ma’naviy merosini izdan chiqarishni ko‘zlaydigan

madaniyat hisoblanadi. Ayni paytda dunyoda demokratiya va erkinlik, oshkoralikning yagona standartini zo‘r berib targ‘ib qilayotgan buzg‘unchi kuchlar insonlar ongiga ta‘sir ko‘rsatishning turli yo‘llaridan foydalanishga harakat qilmoqda. “Ommaviy madaniyat” ana shu yo‘lda juda muhim vazifani – inson ma‘naviyatini yo‘qotish orqali uni bo‘ysundirishga xizmat qiladi.

Birinchi bobning **“Globallashuv davrida “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashishning ijtimoiy-falsafiy yo‘llari”** nomli ikkinchi paragrafida Yangi O‘zbekistonda globallashuvning keng ko‘lamli mahsulotlari bo‘lgan video va disklarning kirib kelishi va axborotlar almashinishdagi yangilanishlar xalqimizning milliy mentalitetidan yiroq, axloqiy ta‘sir doirasi past va umuminsoniy qadriyatlardagi insoniy me‘yorlarga to‘g‘ri kelmasligi natijasida yoshlarning murg‘ak qalbiga go‘yoki zamonaviy mahsulotlar sifatida singib borayotganligi tadqiq etilgan. Unda yoshlarning ongida “ommaviy madaniyat” tuzog‘iga tushirishda san‘at asosiy vazifani bajarayotganligi ifodalangan. Globallashuv sharoitida ijtimoiy-falsafiy yo‘l sifatida birinchi navbatda, estetik ong mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijobiy ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy hayotda san‘at yoshlarning ishonchiga aylanib, haqiqiy go‘zallik, nafosat shaydosi bo‘lishida milliy manfaatga yo‘naltirilgan ehtiyojga ko‘chishi lozim. Yoshlarni san‘at asosida mafkuraviy kurashishga chorlovchi ikkinchi yo‘l bu – ma‘naviyat hisoblanadi. Bunda har bir tadbirning tinglovchi yoki tomoshabinga yetib borishini nazoratga olish, yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqadigan, integratsion xarakterga ega faoliyat amalga oshirilishi lozim. Yoshlarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashishni amalga oshirishning uchinchi yo‘li jamoatchilik fikrini shakllantirish muhim o‘rin egallaydi. Chunki yoshlarning ma‘naviy dunyoqarashi shakllanishida jamoalarda olib boriladigan turli nazoratlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, jamoaviy ehtiyojlarning ma‘lum bir me‘yorlarga amal qilishi, kiyinish madaniyati, o‘z bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ma‘naviy ongini yuksaltirib borish kabilar jamoatchilik fikrini shakllantiradi. “Ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashishdagi to‘rtinchi yo‘l mafkuraviy immunitet sanaladi. Yoshlarda hayot bilan bog‘liq falsafiy tafakkurni shakllantirish, mustaqillikni mustahkamlash amaliyotini mafkuraviy bilimlarda asoslash muhimdir. Yoshlar faoliyatida qadriyatlarni e‘zozlashi, maqsadlarini aniq belgilashi, haqqoniy hayotni solishtirish imkoniyatiga ega bo‘lishida mafkuraviy immunitet dolzarbdir.

“Ommaviy madaniyat” ta‘sirida yoshlarimiz dunyoqarashini o‘zgartirib yuborish, g‘oyaviy tarbiyani izdan chiqarishga urinishlar bo‘lmoqda. Bu holatlar, bizning fikrimizcha, quyidagicha ifodalanadi: 1. Yot g‘oyalarni targ‘ib qilish; 2. Mentalitetga xos bo‘lmagan odatlarni targ‘ib qilish; 3. Yoshlar dunyoqarashini buzishga intilish; 4. Ijtimoiy tarqoqlik. Bularning oldini olishda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosat insoniyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnologik taraqqiyot borasida to‘plagan ijobiy tajribasini astoydil o‘rganishga asoslanmoqda.

Bobning uchinchi **“Yoshlar tarbiyasida “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashishda o‘zbek xalqi an‘ana, urf-odat va marosimlarining o‘rni”** nomli paragrafida o‘zbek xalqining ekzistensial tafakkurini azaliy udumlarga asoslanishi o‘rganilgan. G‘arb olamida keyingi paytlarda yoshlarning o‘zligini yo‘qotishga intilayotgan soxta demokratiya tuyg‘usi kuchaymoqda. O‘zbek xalqining ham

an'analariga qarshi kurashayotgan "ommaviy madaniyat"ning tajovuzlari ajdodlarimiz ma'naviyatini yo'qotishga zo'r berib urinishlarda aks eta boshladi. Bu madaniyat talqinicha, har bir millatning marosimlarini cheklamasligi, barchaning bemalol o'zi xohlaganicha yashashi targ'ib etilmoqda. Vaholanki, "o'zbek madaniyatiga xaosni, o'zboshimchalik, buzg'unchilikka yetaklovchi individualizm, betartiblikni himoya qilish, qo'llab-quvvatlash begona. U mudom axloqiylikni, tartiblilikni o'zida aks ettirgan"¹. Bundan ko'rinadiki, o'zbek xalqi azaldan har bir faoliyatda, jumladan, yosh avlodning kamolotida turli buzg'unchilikka daxldor qarashlarga qarshi kurishib kelgan.

Bu "ommaviy madaniyat"ning asl maqsadi yoshlarning irodasiga qarshi chiqish, jamiyatdagi erkinlikdan mosuvo qilishdir. O'zbek xalqi yaratgan "an'ana va marosimlari shaxsni ma'naviy-axloqiy forig'lantiruvchi old-katarsis holat bo'lib, shaxsni ijtimoiylashuvi, jamiyatning bir a'zosiga aylanishi post-katarsis holat sifatida e'tirof etilgan"². Bu holat o'zbek xalqining ham urf-odatlariga singib ketgan bo'lib, asrlar davomida o'zining asl qiyofasini saqlagan holda, avjdodlardan avlodlarga o'tib kelgan. "Xalqimiz yaratgan o'zbekona qadriyatlar, rang-barang va beqiyosdir. Ularning sanog'i 5-10 mingdan oshadi"³. Haqiqatdan ham ularning sanog'iga yetish juda qiyin. Ularning har birida o'ziga xos ajdodlarimizning yuksak aql-idroki, ijtimoiy ideallari mujassam. Ularning mohiyatini anglab yetish uchun o'tkir farosat va nozik didli bo'lish, jamiyatdagi har bir o'zgarishlarga befarq bo'lmaslik lozim. Bugun "ommaviy madaniyat" avvalambor tevarak-atrofimizda bo'layotgan voqea-hodisalarda, tafakkur tarzimizda estetik jozibadorlik bilan ongimizga singishga intilmoqda. Tashqi muhitdan inson zavq beradigandek tuyuladigan ko'pgina voqeliklar uning kushandasiga aylanayotganligining o'zi ommaviy madaniyatga qarama-qarshi munosabatni shakllantiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Jamiyatda "ommaviy madaniyat"ning yoshlar tafakkurida salbiy ta'sirini oldini olishda axloqiy mexanizmlardan foydalanish"** deb nomlanadi. Bobda keyingi yillarda davlatlarning axloqiy tafakkur tarziga singib ketishga intilayotgan ommaviy madaniyat tahdidlari har bir fuqaroni ogoh bo'lib yashashga, kelajak avlod uchun o'tmish milliy qadriyatlarini asrashga chorlayotganligi tahlil etilgan. Bobning birinchi paragrafi **"Globallashuv davrida "ommaviy madaniyat"ning destruktiv xususiyati va tahdid soluvchi omillari"** deb nomlanadi. Undagi qarashlar XX asrning oxiri va XXI asr boshlaridagi xalqaro vaziyat, davlatlar, xalqlar o'rtasidagi aloqalar globallashuv jarayonlarining nihoyatda chuqurlashib ketayotganligi bilan xarakterlanadi.

Bizning fikrimizcha, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahonda qaror topgan axloqiy befarqlik muhiti vorisiylikka jiddiy putur yetkazmoqda. Globallashuv sharoitida G'arb "ommaviy madaniyat" mahsullarining (asarlar, filmlar, suratlar va h.k.) O'zbekistonga kirib kelishi ancha jadallashdi. Ularning bir qismida G'arb axloqiy normalari, g'arbona axloqiy liberalizm namoyish etiladi.

¹ Нишонов О.Дж. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти ва функциялари. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси автореферати.-Тошкент: 2016. -Б. 26.

² Самадов А.Р.,Эргашева М.Х. Шахс эстетик идеали: шаклланиши ва ривожланиши муаммолари. -Тошкент: Zilol buloq, 2021. -Б. 182.

³"Миллий урф-одат, маросим ва анъаналарнинг шахс маънавий камолотидаги ўрни" мавзусидаги конференция материаллари. -Тошкент: 1999.-Б. 16.

Bunday namoyishning progressiv jihatlari talaygina, albatta. Aynan ana shunday namoyish jamiyat a'zolari, ayniqsa yoshlar dunyoqarashida salbiy iz qoldirmoqda. Ayrim yigit va qizlar ongida ajdodlardan meros bo'lib qolgan axloqiy normalarga emas, o'zga mamlakatlarda ildiz otgan me'yorlarga, ba'zan axloqsizlik andozalarga amal qilish istagi paydo bo'lmoqda.

“Ommaviy madaniyat” qusurlari keng aholi qatlamiga xush kelishi uchun o'ta jo'n va ahamiyatsiz mavzularga e'tibor qaratgani uchun dindor va madaniyatshunoslar, olimlar tomonidan o'ta yuzaki, iste'molparast, sensualist va buzuqchilik, deya tanqid qilinadi¹. Bu mavzu doirasida izlanishlar olib borgan rus tadqiqotchisi A.V.Kostina mazkur “g'ayrimadaniy” yo'nalishning yuzaga kelish tarixi xususida quyidagilarni bayon qilgan: “Ommaviy ravishda ma'nosiz xatti-harakatga uzluksiz yo'nalgani, uning asosiy funksiyasi esa ko'ngilxushlik hisoblanadi”². Shuningdek mazkur ijtimoiy-madaniy hodisaning vujudga kelishi to'g'risida ““Ommaviy madaniyat” tahdidi” asarida quyidagicha ma'lumot beradi “...AQSh sotsiologi D.Uayt fikricha esa, ommaviy madaniyatning dastlabki unsurlari sifatida minglab tomoshabinlarni o'ziga jalb etgan Rim gladiatorlari o'rtasidagi janglarni keltirish mumkin”³. Rus tadqiqotchisi A.V.Kostina fikriga ko'ra, ommaviy madaniyatning rivojlanishi qadimgi shahar-davlatlarda aks etgan. Jumladan, Bobilda tomoshalar, ko'zboylog'ichlar, ko'cha ko'shiqchilari va raqqoslari misolida ko'ngilxushlik qilish turi keng yoyilgan edi.

“Ommaviy madaniyat”ni mazkur ko'rinishlari ichida axloqiy buzuqlik muammosi birinchi o'ringa qo'yilganligi bejiz emas. Bu tushunchalarga chuqurroq nazar solsak, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: 1. axloqiy buzuqlik; 2. zo'ravonlik; 3. individualizm; 4. egotsentrizm. Bular orqali bugungi axborot aylanishi jadallashgan va globallashuv sharoitida “ommaviy madaniyat” - mafkuraviy urush quroli sifatida rol o'ynamoqda. Yangi O'zbekiston jamiyatining ma'naviy yangilanishi jarayonida xalqimiz ongida yuksalish yuz berdi. Ayniqsa, davlatning kuchi sifatida maydonga chiqayotgan yoshlar jismoniy va ma'naviy sog'lom, barkamol yosh avlodimiz timsolida bu haqiqat yana bir bor o'z tasdig'ini topmoqda. Zero, mustaqillikning ma'naviy asoslarini mustahkamlashda tarixni o'rganish va qilingan xatolardan oqilona xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga egadir.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragarfi **“Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tahdidlaridan asrashda milliy g'oyaning mafkuraviy xususiyatlari”** deb nomlanib, unda yoshlar ongida xalqning milliy-ma'naviy qadriyatlarga mos bo'lmagan xatti-harakat, nosog'lom g'oyalar, qadriyatlarga moyillik paydo bo'lishining oldini olishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, suhbatlarning tez-tez o'tkazilib turilishi bilan bog'liq masalalar tadqiq qilingan. Ma'naviyatimizga chetdan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sirlar haqida so'z yuritishdan avval, mazkur g'oyalarning xarakteri, mazmuni anglash lozim. Avvalo, “tahdid” tushunchasi mohiyat-mazmunini yoritadigan ta'riflarni ko'rib chiqishimiz kerak. “Tahdid xavf-xatar kabi, darhol ko'zga tashlanmasligi, uzoqni ko'zlashi va xavf - xatarga nisbatan zarari ko'pligi bilan farq qiladi. Tahdidlar turli-tuman:

¹Wikipedia.org

² Костина А.В. Массовая культура: аспекты понимания //Знание. Понимание. Умение. - 2006. - № 1. - С. 28.

³Одилхонова Ш. “Оммавий маданият” таҳдиди. - Тошкент: Мухаррир, 2010. - Б. 5.

ichki, tashqi, uzoq va yaqin (makon nuqtai nazaridan) bo‘lishi mumkin”¹. Tahdidlar avvalo insonning ichki dunyosiga, iymon-e‘tiqodiga, axloqiga xavf soladi, uning ma‘naviyatiga tajovuz qiladi. “Tahdid” fenomeni bo‘yicha yirik mutaxassis va amaliyotchilardan U.Gelbreyt, E.Reyshauer, R.Nibur, S.Xantington, G.Kissinjer, I.Vallerstayn (AQSh), A.Toynbi (Angliya), A.Turen (Fransiya), ilmiy-amaliy muassasalar va jamg‘armalardan esa “Rim klubi” va “Paguosh” tinchlik harakati bu borada jiddiy ishlar olib borishgan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston uchun navbatdagi xavfli ma‘naviy xuruj informatsion tahdiddir. Bu turdagi taxdidlar insonning ijtimoiy ongini noto‘g‘ri shakllantirish va shu tariqa o‘zligiga ega bo‘lmagan olomoni tarkib toptirishni ko‘zlaydi. Infomatsion tahdidlar - ba‘zida “axborot xuruji” deb atalib - shaxsni ikkilantiradi, uni muammolar girdobiga tashlaydi. Natijada fuqarolarning ijtimoiy ongi zaharlanib, jamiyatda ijtimoiy xastalik vujudga keladi². Bugungi kunda informatsion tahdidlar asosan internet vositasida chetdan turib uyushtirilmogda.

Jamiyatda yoshlarni tahdidlardan asrash barchamizning vazifamiz sifatida quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

a) vayronkor g‘oya ta‘siriga tushgan shaxs esa kasblarning ijtimoiy ahamiyati, ularning o‘ziga xos jihatlarini muayyan mafkuraviy pozitsiyadan baholay boshlaydi - bu kasbiy bilimlarni oqilona egallash imkonini cheklaydi;

b) shaxsni milliy va umumbashariy qadriyatlardan begonlashtiradi, uni soxta qadriyatlar ta‘siriga tushiradi; vayronkor g‘oyalar ta‘sirida shaxs ma‘naviy dunyosida milliy va umumbashariy qadriyatlarining qadrsizlanishi jarayoni yuz beradi;

v) shaxs insonparvarlik g‘oyalaridan yuz o‘giradi; vayronkor g‘oyalar ta‘siriga tushgan shaxs uchun ezgulik, adolat, vatanparvarlik, millatparvarlik g‘oyalari o‘z ahamiyatini yo‘qotadi; eng qizig‘i, aksariyat hollarda shaxs ularning o‘rnini egallagan soxta g‘oyalar mazmuni hatto ifodalab bera olmaydi;

g) shaxs e‘tiqodida tuzalmas o‘zgarishlar ro‘y beradi; targ‘ibot ta‘siri o‘laroq vayronkor g‘oya shaxs ma‘naviy qiyofasidan shu qadar chuqur o‘rin oladiki, uning iskanjasidan qutqazish imkoni qolmaydi.

Milliy va ma‘naviy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, mamlakatimiz mustaqilligi va xavfsizligini saqlab qolish uchun turli xil ma‘naviy tahdidlardan yoshlarni himoya etish yo‘lida millatimiz istiqbolini, farovonligini o‘zida ifoda etuvchi milliy g‘oya asosida mafkuraviy tarbiyani shakllantirish yoshlarimiz hayotini turli balo-qazolar xurujidan asrab qola oladi.

Bobning uchinchi **“Ijtimoiy tarmoqlar “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib qiluvchi substansional komponent sifatida”** nomli paragrafida fan va texnikaning salmoqli taraqqiy topgani “ommaviy madaniyat”ga o‘z ta‘sirini o‘tkazganligi, insoniyat sivilizatsiyasi yutuqlarini muhofaza qilish va asrash masalalarining dolzarblashgani, umumbashariy muammolarning keskinlashgani ochib berilgan.

Ommaviy axborot vositalari(mediamarkazlar)ning bosh funksiyasi jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan yangiliklar va o‘zgarishlarni xalqqa, ommaga

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Тошкент: Ўзбекистон, 1997. -Б.-28.

²Жўраев Т. Миллий давлатчилик ва хавфсизлик. -Тошкент: Академия. 2007. -Б.-54.

yetkazish(mediatahlil)dir. Demokratik qadriyatlarni qaror toptirishni maqsad qilib qo‘ygan har bir jamiyat, sotsium mediamarkazlar va mediaxborotlar imkoniyatlaridan foydalanishga intiladi. Chunki, demokratiya va hurfikrlik, ko‘pfikrlik uyg‘undir. “Jamiyat hayotining barometri bo‘lgan ijtimoiy kommunikatsiya jarayonlari avvalo ommaviy axborot vositalari orqali kishilar ongiga, tasavvurlari va dunyoqarashiga ta’sir etadi, ommaviy axborot madaniyatining muhitini yaratadi”¹. Dunyoning aksariyat, shu jumladan, Yevropa davlatlarida ham OAV faoliyatini kafolatlashning maxsus tizimlari, huquqiy normativ asoslari mavjud bo‘lib, ularni richagini ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish tashkil etadi. Ayrim shaxslar, guruhlar OAV dan o‘zining g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanishi mumkinligiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Terroristik va ekstremistik oqimlar ta’siriga tushib qolgan, goho esa o‘zining imkoniyatlarini mutlaqlashtirib, soxta shuhrat topishga intiladigan kimsalar o‘z maqsadlariga yetishda OAVdan foydalanadilar.

Yoshlar hayotida Twitter, Instagram, LinkedIn, Google+, Pinterest, Snapchat, Reddit, WatsAp, Flickr kabi ijtimoiy tarmoqlar muhim o‘rin tutadi. Dunyo aql salohiyatining yutug‘i bo‘lmish bu yangiliklar insonlarning ish samaradorligini oshiradi, mushkulini oson qilayotgani, uzoq masofadan turib ta’lim olish, dunyoda bo‘layotgan voqea hodisalardan tezda xabardor bo‘lish va axborotlarni tez tarqatish imkonini berayotganini alohida ta’kidlash lozim. Jamiyat a’zolari ongiga faqatgina ommaviy aloqa vositalari ta’sir ko‘rsatmaydi, shu bilan bir qatorda ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilinadigan materiallarning xarakteriga jamiyat ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Afsuski, madaniy munosabatlar nuqtai nazaridan olib qaraganda, e’lon qilinayotgan materiallar har doim ham yuqori madaniy saviyada emasligiga guvoh bo‘lamiz. Mahalliy axborotlar ta’sirchanligini oshirish choralari ko‘rilmasa, yot g‘oyalar milliy qadriyatlarni barbod etish orqali tarixan do‘st bo‘lgan xalqlar va millatlar orasiga nizo solishi turgan gap, bunday paytda har qanday voqea va hodisaga aql-idrok yo‘rig‘i bilan yondashish lozim.

